

TALABALARNING O‘QUV JARAYONIDAGI MOTIVATSIYASINING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI

Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning o‘quv jarayonidagi motivatsiyasining ta’lim sifatiga ta’siri va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, talaba, ta’lim, o‘quv motivatsiyasi, omil, motiv, maqsad, ehtiyoj, o‘quv jarayoni.

Mamlakatimizda hozirgi paytda yoshlarga ta’lim va tarbiya berish har doimgidek dolzarblik kasb etmoqda. Ta’lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lgan. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi. Kelajakda erishishimiz lozim bolgan buyuk maqsadlarga yetishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak. Sh.M.Mirziyoevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilgandir.

Ta’lim tizimini takomillashtirish, uning sifat darajasi va samaradorligini oshirish bir qator omillar bilan chambarchas bog‘liq. Dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan qiziqishning uyg‘onishiga turtki berish zamonaviy pedagoglardan pedagogik-psixologik hamda uning texnologiyalarini bilishni talab etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarni kasb-hunar egallashga tayyorlashni takomillashtirish, bitiruvchilar tayyorgarligining ko‘plab omillari va ularning kasbiy faoliyatga real tayyorlik darajasi bilan shartlanganligini e’tirof etish zarur. Ular orasida pedagogik oliy o‘quv yurtlari talabalarining o‘qishga oid faoliyat motivatsiyasi, bu jarayondagi o‘rganish strategiyalarini mukammal egallash o‘ta muhim hisoblanadi.

Ma’lumki fanda motivatsiya keng ma’noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko‘p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko‘p darajali tizimi bo‘lib, u o‘zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarini mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo‘lib, u o‘zida mayillar, ideallar ko‘rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir. Motivatsiya jarayoni quyidagi psixik jarayonlardan iborat: motiv mazmunini idrok etish, uning mazmunini emotsional baholash, motivni mazmunini anglash va baholash, motivga ishonish.

Hech bir o‘qituvchi, hatto juda malakali o‘qituvchi ham, agar uning harakatlari muayyan o‘quv jarayonining motivatsion asoslari bilan muvofiqlashtirilmasa, kerakli natijaga erisha olmaydi. Aytish kerakki, ta’lim motivatsiyasi muammosi ta’lim psixologiyasining asosiy muammolaridan biridir. O‘quv motivatsiyasini boshqarish o‘quv jarayonini boshqarishga imkon beradi. Ushbu muammo hozirgi kunga qadar psixologiya va pedagogikada asosiy va eng muhimlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bu muammoni tadqiq qilish ucnun juda ko‘p izlanishlar olib borilgan.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Oliy ta’lim tizimidagi o’qitishning modul-kredit shaklida talabalarning ta’lim motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni e’tirof etishimiz mumkin:

1. O’quv rejaning tuzilishi – bunda talabalar o’quv rejasini, ya’ni mavzular ketma-ketligi, nazorat muddatlarini oldindan bilishlari, aniq tartib asosida ta’lim olishlari ularni rivojlantiradi. Talabalar o’quv rejasi va o’quv materiallari oldindan tayyorlanganligini sezsa yoki ko’rsa, bu ularga ko’proq hotirjamlik hissini beradi. Bu o’quv muhitida ta’minlanganda, talabalarga o’quv materialiga to’liq e’tibor qaratish imkonini beradi.

Talabalar o’quv materiallarini oson o’zlashtirishiga yordam berish uchun o’qituvchilar darslar va o’quv dasturlarini rejalashtirishlari kerak. Darsda qo’llaniladigan barcha materiallar oldindan tayyorlanishi kerak. O’qituvchilar, shuningdek, semestr yoki sinf boshida kurs yoki sinfning maqsadlarini bayon qilishlari mumkin.

2. O’qituvchining xulq-atvori va shaxsiyati - o’qituvchi yoki mentorlar, o’quvchilarni yaxshi tushunishlari va ularning muammolarini yechishlari uchun yordam bera olishlari muhimdir. Agar talaba o’qituvchisidan qo’rqish yoki yoqtirmaslik kabi salbiy his-tuyg’ularga ega bo’lsa, bu uning umuman fanga bo’lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Agar o’qituvchi ma’lum talabalarga nisbatan boshqacha muomala ko’rsatsa yoki kamsituvchi so’zlarni ishlatsa, bu ularning ta’limga bo’lgan motivatsiyasini pasaytiradi, talabalar ichida diskriminatsiya holatlarini keltirib chiqaradi.

Boshqa tomondan, mehribonlik, e’tibor, ijobiy fikr-mulohazalar va rag’batlantirish talabalarning ta’lim motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

3. O’qitish metodikasi - agar o’qituvchilar turli xil o’qitish usullaridan foydalansa, talabalar ta’limga bo’lgan qiziqishlarini saqlab qolish ehtimoli ko’proq. Bu orqali darslarda xilma-xillik yaratiladi va talabalarning zerikishini oldi olinadi. Muayyan tanlovlar uchun imkon berish, masalan, guruhda talabalar kolaborativ ishlashlarini ta’minlash ham yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Ta’lim metodining o’qituvchi tomonidan to’g’ri tanlanishi, dars jarayonida turli vositalar yordamida mavzuning tushuntirilishi ta’lim sifatining oshishiga yordam beradi. Ta’lim metodlarini malakali o’qituvchining usuli bilan birlashishi natijasida fanning va o’rganilayotgan mavzuning mazmuni va o’ziga xosliklari to’liq ochib beriladi. Bu esa talabalarning fan yuzasidan bilim, ko’nikma, malaka kompetensiyalarining shakllanishi va rivojlanishiga asos vazifasini o’taydi.

Shunday qilib, o’qituvchi turli xil o’qitish usullarini qo’llash orqali yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Ba’zi hollarda darsdan tashqari mashg’ulotlarga yozilish yoki repetitorning yordami talabalarning dars davomida qondirilmagan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonidagi ijobiy muhitda talabalar o’zlarini yaxshi his qiladilar, ta’lim olish go’yoki “kundalik ovqatlanish” kabi asosiy ehtiyojlarini qondiradigan darajada bo’lishligi va sog’lom ijtimoiy munosabatlarni o’rnatish uchun maqbul muhitni ta’minlaydi.

Topshiriqlarning haddan ziyod ko’pligi va o’ta jiddiy bo’lgan o’quv muhiti ham ta’lim motivatsiyasini pasaytiradi. O’quv materialining va o’quv topshiriqlarining murakkabligi faqat bu qiyinchilikni vujudga keltirish yoki yengib o’tish mumkin bo’lgandagina o’quv jarayoniga qiziqishning ortishiga olib keladi, aks holda qiziqish tezda pasayadi.

Motivatsiya inson hayotining har bir sohasida asosiy o’rinni egallaydi. Insonlarni maqsadli faoliyatga undaydi. Kasbiy rivojlanishda ham, shaxsiy hayotda ham insondagi sabab va ehtiyojlar majmuini tashkil etadi, ehtiyojlarni imkoniyatlarga aylantirishga turtki bo’ladi. Motivatsiya o’qituvchining kasbiy faoliyatida, uni muayyan o’quv harakatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga undovchi bir qancha sabab va ehtiyojlarini keltirib chiqarish majmui sifatida baholanadi. Motivatsiyani qaysidir ma’noda insondagi qobiliyatlarini namoyon etuvchi kuch ham deb qarash maqsadga muvofiqdir.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Ta’lim motivatsiyasi muammosini hal qilishning ahamiyati uning didaktik jarayonini samarali amalga oshirish uchun muhim ekanligi bilan belgilanadi. Ma’lumki, aynan o’qishga nisbatan salbiy yoki befarq munosabat talabani past o’zlashtirishi yoki o’rganish faoliyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli, talabalarni yetarli bilim va ko’nikmalarni egallashlari uchun ta’lim motivatsiyasiga ta’sir qiluvchi omillarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 05.06.2018 yildagi PQ-3775-sonli Qarori //http://lex.uz.
2. <https://apriori-nauka.ru/uz/simulacra/osobennosti-formirovaniya-vnutrennei-uchebnoi-motivacii-studentov.html>
3. Jo‘rayev N.S. “O‘quv motivlarini shakllantirish” - Toshkent:TDPU 2008.-62-b.
4. Xaydarov F., Halilova N. “Umumiy psixologiya ” Toshkent 2010. – 330-b.